

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

SOBIROVA DILFUZA ZOKIRJONOVNA

**TIBBIY TA‘LIMDA KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA “YUQUMLI
KASALLIKLAR“ FANINI O‘QITISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

UDK: 377.122.4; 616.9

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on
pedagogical sciences**

Sobirova Dilfuza Zokirjon qizi

Tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini
o'qitish metodikasi..... 3

Собирова Дилфуза Зокиржон кизи

Методика преподавания дисциплины "Инфекционные заболевания" на
основе кластерного подхода в медицинском образовании 27

Sobirova Dilfuza Zokirjon qizi

Methodology of teaching the subject "Infectious Diseases" based on a cluster
approach in medical education 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

SOBIROVA DILFUZA ZOKIRJONOVNA

**TIBBIY TA‘LIMDA KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA “YUQUMLI
KASALLIKLAR “ FANINI O‘QITISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.PhD /Ped 5138 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kadirova Munira Rasulovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmadalievna Nigora Odilovna
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Ergasheva Gulruhsor Surxoniddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat tibbiyot instituti -

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil "28" NOYABR soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160119, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "18" XI kuni tarqatildi. (2024 yil "18" XI da _____ - raqamli reestr bayonnomasi)



T. Egamberdiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor



S. Shakirov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi t.f.n, dotsent



N. Erkaboyeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor



KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rivojlangan mamlakatlar tibbiy ta'lim tizimida har tomonlama yetuk tibbiyot xodimlarni tayyorlash ularning kasbiy tafakkurini rivojlantirish orqali tibbiyotning zamonaviy yondashuvlarini o'rganish, shuningdek tibbiy ta'limning o'ziga xos mexanizmlarini tadbiq etishga, jumladan, ta'limga doir tadqiqotlar olib borish, hamda dunyo tibbiyotida xorijiy talabalarning kasbiy madaniyati, kasbiy munosabati bevosita uning kasbiy deontologiyasi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, hamda "Tibbiy axloqning xalqaro kodeksi"da belgilangan vazifalarni zamonaviy tibbiyotning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishlarida, tibbiy ta'limning o'z oldiga qo'ygan strategiyasini belgilash zaruratini ko'rsatmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalarida, AQSHning Djon Xopkins universitetida tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qitishda zamonaviy didaktik materiallarni qo'llash masalasi bo'yicha dasturi ishlab chiqildi, shuningdek, Buyuk Britaniyaning Kent universitetida mutaxassilik fanlar bo'lajak shifokorlar tibbiy deontologiyasining ajralmas qismi sifatida zamonaviy Yevropa tibbiyoti yutuqlari bilan o'zaro muvofiqlashtirildi, pedagogik kasbidagi insoniy munosabatlar tizimi, erkin tajriba almashinuvi va madaniyatlararo o'zaro tushunish texnologiyasiga asoslanganligi, shuningdek ekslyuziv kompetensiyani talabning layoqati bilan o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali bo'lajak shifokorlarning kasbiy layoqatlarini rivojlantirish va uni amaliyotda qo'llay olishi muhim dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda "O'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etishni tashkil qilish, raqamli ta'lim resurslari, uydan turib masofaviy ta'lim berish va ota-onalar bilimini oshirish texnologiyalarini joriy etish, rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni integratsiya qilish"¹ sog'liqni saqlash sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar natijasida xalqaro standartlarga to'la javob berishga erishilmoqda, bu esa tibbiy ta'limdagi eng muhim jihatlaridandir, shuningdek bo'lajak shifokorlarning tibbiy ta'limni rivojlantirishlarida klasterlik yondashuv muhim dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-son "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108- son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori <https://lex.uz/uz/docs/4327235>.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur tadqiqot ishi yuzasidan mamlakatimizda ushbu sohada bir qator olimlar tadqiqotlar olib borishgan, jumladan X.T.Axmadxo‘jayev, S.D.Boltaboyev, G‘.J.Jabborov, G.I.Miroshnichenko, F.X.Raximov, M.T.Xodjiyev va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Talaba-yoshlar tarbiyasining nazariy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, g‘oyaviy, sotsiologik jihatlari Z.Azimova, Sh. Akramova, Alliyarov A.D., Yu.M.Asadov, N.M.Egamberdiyeva, M.Bekmurodov, M.Jakbarov, M.Qahhorova, M.Quronov, O.Musurmonova, Q.Nazarov, Sh.Mustafayev, U.Mahkamov, Z.Qosimova, Q.Kuranboyev, G.I.Maxmutova, B.Xodjayev, T.O‘tebayevlarning ishlarida atroflicha yoritib berilgan.

Tibbiy ta’limga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa M.Kadirova, N.Komilov, I.Iminaxunova, Sh.Ergasheva, N.Axmedova, L.Axmedova, Sh.Axmadaliyev, A.Ko‘chqarovlar tomonidan bo‘lajak shifokorlarni tayyorlashda ijodiy yondashuvlar, kasbiy kompetentlik masalalari tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan D.I Kalashnikov, Torxova, L. Berulava, S.L. Bratchenko, B.Z. Vulgfov, K.V. Gavrilovets, L.I. Novikova, N.L. Selivanovalar tomonidan tadqiq qilingan. Tahlillar asosida ma’lum bo‘ldiki, yuqoridagi tadqiqotlarda A.Marshall, I.B. Merkin, B.B. Palsev, A.B Torxova, L. Berulava, S.L. Bratchenko, B.Z. Vulgfov, K.V. Gavrilovets, L.I. Novikova, N.L. Selivanovalar tomonidan o‘rganilgan. Tahlillar asosida yuqoridagi tadqiqotlarda bo‘lajak shifokorlarning kasbiy ma’naviyati, ma’naviy fazilatlari masalasi yaxlit o‘rganilmagan.

Xorijiy olimlar tomonidan V.P Tretyak , A.V Tyaglo, P.G Altbach, K.A. Khoon kabi olimlar ilmiy fikrlar bildirishgan.

Ammo mazkur tadqiqot ishi alohida dissertatsiya muammosi sifatida o‘z tamoyiliga etishishini taqozo qilmoqda. Shunga ko‘ra, tibbiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni klasterli yondashuv asosida innovatsion rivojlantirishni ta’minlovchi tibbiy tizimni ishlab chiqish va uni tibbiyot oliy ta’lim amaliyotida qo‘llashga ehtiyoj mavjudligi zaruratini ko‘rsatdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejasining “Zamonaviy pedagogikani rivojlantirishda fanlararo integratsion jarayonlarni tashkil etishning istiqbollari”doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: tibbiy ta’limda klasterli yondashuv asosida “Yuqumli kasalliklar” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitish asosida ilmiy hamda ilmiy-metodik muammo ekanligini asoslash;

tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitishda innovatsion rivojlantirish tamoyillari hamda mezonlarini tahlil qilish;

tibbiy ta'lim jarayonida klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitishning metodik ta'minotini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslash va amaliyotda sinab ko'rish;

tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitish samaradorligini tajriba-sinov asosida tekshirish va aniqlash hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini innovatsion o'qitishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy – metodik adabiyotlarni qiyosiy tahliliy o'rganish, modellashtirish, anketa so'rovlari, testlar, kuzatuv, pedagogik kuzatish, suhbat, integral diagnostika, sosiometriya, pedagogik eksperiment, sotsiologik so'rovlar, kontent tahlil, intervyu, matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

yuqumli kasalliklar fanini o'qitishda klasterli yondashuvga asoslangan o'qitishning strategik tuzilmasi bo'lajak shifokorlarning deontologik faoliyat intensivligini ta'minlashga qaratilgan o'quv, didaktik, laboratoriya tekshirish usullari, kasbiy faoliyatning identivligini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak shifokorlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy shartlari amaliy tavsifga ega o'quv materiallarini loyihalash, reflektiv amaliyot hamda mutaxassislik amaliyotini muqobillashtirishga doir klinik fanlarni integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

yuqumli kasalliklar fanini o'qitishning strategik bosqichlari interfaol grafik organayzer metodlarini formativ baholash ko'rsatkichlari, bilimlarni intensiv rivojlantirishni barqaror ta'minlaydigan ish turlarini reflektiv jarayonda amaliy yo'nalganligiga ko'ra modifikatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

tibbiy ta'limda zamonaviy o'quv-amaliy laboratoriyalarni tashkil qilishning didaktik imkoniyatlari talabalarning rivojlanish vektorini ta'lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari, tibbiy ta'lim sifat parametrlarini tavsiflashga imkon beradigan ko'rsatkichlarni aniqlash asosida muvofiqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

yuqumli kasalliklar fani bo'yicha turli darajali klasterli yondashuvlar asosida yaratilgan metodika va undan foydalanish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yuqumli kasalliklar fanini o'qitishga doir Pedagogikadan izohli lug'at ishlab chiqilgan;

yuqumli kasalliklar fanini o‘qitish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni klasterlari asosida innovatsion rivojlantirishga imkon beradigan didaktik materiallar va so‘rovnomalar yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga doir falsafiy, metodologik, metodik, aksiologik, psixologik va tibbiy yondashuvlar, hamda “Yuqumli kasalliklar” fanini o‘qitish, bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini klasterlari asosida innovatsion rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslangani; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilgani; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatidan ta‘minlangani; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan g‘oyalar va qoidalar “Yuqumli kasalliklar” fanini o‘qitish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni klasterli yondashuv asosida ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Yuqumli kasalliklar” fanini o‘qitish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni innovatsion rivojlantirish bosqichlari (mustaqil oldindan ayta olish, mustaqil loyihalashtirish, mustaqil ta‘lim olish) o‘quv faoliyatini modulli yondashuvlar asosida tashkil etish mexanizmlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tibbiyot yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, fan dasturlarida turli darajali talabalarga moslashtirilgan tabaqalashtirish asosida ta‘limni tashkil etish tamoyillari majmuasidan, izchillik, uzviylik, tizimlilik, kreativlik, refleksiv tamoyillari haqida talabalarda yaxlit tasavvurni shakllantirish bilan belgilanadi;

tadqiqot natijasida ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus metodikadan “Yuqumli kasalliklar” fanini o‘qitish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni klasterli yondashuv asosida innovatsion rivojlantirish bo‘yicha foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy ta‘limda klasterli yondashuv asosida Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishga doir tadqiqot natijalari: yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klasterli yondashuvga asoslangan o‘qitishning strategik tuzilmasi bo‘lajak shifokorlarning deontologik faoliyat intensivligini ta‘minlashga qaratilgan o‘quv, didaktik, laboratoriya tekshirish usullari, kasbiy faoliyatning identivligini hisobga olish asosida aniqlashtirilganligiga oid takliflar “Bolalar yuqumli kasalliklari” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-838 son guvohnomasi). Natijada yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda talabalarga individua yondashuvning imkoniyatlari ortgan;

bo‘lajak shifokorlarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy shartlari amaliy tavsifga ega o‘quv materiallarini loyihalash, refleksiv amaliyot hamda mutaxassislik amaliyotini muqobillashtirishga doir klinik fanlarni

integratsiyalash asosida takomillashtirilganligiga oid takliflar “Bolalar yuqumli kasalliklari” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-838 sonli guvohnomasi). Natijada talabalarning mutaxassisligiga doir amaliy ko‘nikmalarni bilish imkoniyatlari kengaytirilgan;

yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishning strategik bosqichlari interfaol grafik organayzer metodlarini formativ baholash ko‘rsatkichlari, bilimlarni intensiv rivojlantirishni barqaror ta‘minlaydigan ish turlarini reflektiv jarayonda amaliy yo‘nalganligiga ko‘ra modifikatsiyalash asosida takomillashtirilganligi hamda tibbiy ta‘limda zamonaviy o‘quv-amaliy laboratoriyalarni tashkil qilishning didaktik imkoniyatlari talabalarning rivojlanish vektorini ta‘lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari, tibbiy ta‘lim sifat parametrlarini tavsiflashga imkon beradigan ko‘rsatkichlarni aniqlash asosida muvofiqlashtirilganligiga oid takliflar “Bolalar yuqumli kasalliklari” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-838 son guvohnomasi). Natijada yuqumli kasalliklar fanini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qitishning samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan 2 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tibbiy ta‘limda klasterli yondashuv asosida “Yuqumli kasalliklar” fanini o‘qitishning nazariy metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida tibbiy ta‘limda klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklarni kelib chiqish tarixi, xususan tabobat ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sino (980-1037) o‘zining “Tib qonunlari” kitobida “Kasalliklardan ba‘zilari yuqumli bo‘ladi” deb ko‘rsatadi. “Bular, deb yozadi u - moxov, qo‘tir, chechak, vabo isitmasi, yiringlagan yaralar kabi xastaliklardir”. Undan besh

asr keyingina italiyalik shifokor D.Frakostoro (1483-1553) “Kontagiyalar va kontagioz kasalliklar” deb nomlangan kitobida yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarini tirik mavjudotlar “kontagiyalar” deb atagan. O‘sha davrdagi fan va texnika taraqqiyoti alohida yuqumli kasallikning qo‘zg‘atuvchisini aniq topish imkonini bermagan. Shu boisdan yana bir necha asrgacha bu kasalliklar mavhum bo‘lib qolaverganligi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Yuqumli kasalliklar bo‘yicha bevosita ilmiy ish olib borgan va ko‘plab ilmiy xodimlar tayyorlagan olimlardan I.Q.Musaboyev, T.X.Najmitdinov, V.M.Majidovlarni hamda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining muxbir a‘zosi, professor I.Q.Musaboyev boshchiligida tif, paratif kasalliklari, ichburug‘, vabo, virusli gepatitlar, difteriyaning patogenezi o‘rganish va davolash usullarini takomillashtirishda katta ilmiy ishlar bajarilgan.

Bolalarda ko‘p uchraydigan yuqumli kasalliklarni o‘rganishda professorlardan X.A.Yunusova, O.S.Maxmudov, T.O.Daminov, Sh.N.Nazarovlar boshliq ilmiy jamoalar tomonidan keng ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining hamda Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining muxbir a‘zosi A.O.Obidovning mikrobiologiya va immunologiya sohasidagi, professor virusolog S.S.Maxsumovning virusologiyaga oid ilmiy ishlari katta ahamiyatga egadir.

Tadqiqotimiz doirasida pedagogik olimlarimizni ilmiy ishlarini va bir necha adabiyotlarni tahlil qilib, hamda ilg‘or tajribalarini o‘rganib, umumlashirib, shunday xulosaga keldikki, bo‘lajak mutaxassislarni “Yuqumli kasalliklar” fanini o‘qitishda o‘quv mashg‘ulotlarida xususan, tibbiyot xodimlari avvalo aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlari olib borishlari zarurdir. O‘zi xizmat ko‘rsatadigan hududda aholi bilan yuqumli kasalliklarning yuqish yo‘llari, undan ehtiyot bo‘lish tadbirlari haqida suhbatlar o‘tkazib turish zarurligi aniqlandi. Mahalla uyushmasi, qishloq kengashlari, jamoat tashkilotlari turli mavzularda o‘tkazadigan yig‘ilishlarda faol ishtirok etib, aholi orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish bo‘yicha tushunchani shakllantirib borishligi aniqlandi. Oilada, bog‘cha va maktablarda bolalarni yoshligidanoq ozoda bo‘lishga, qo‘lni tez-tez yuvib turishga odatlantirish zarurligi, atrof-muhitni toza tutish, oqar suvlar ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik yuqumli kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga egaligi isbotlandi. Tashviqot ishlari samarali bo‘lishi uchun, avvalo tibbiyot xodimining o‘zi turmushda gigiyena talablariga qat‘iy rioya qilishi, pokizalikda boshqalarga namuna bo‘lishi lozim ekanligi aniqlandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yagona ta‘lim siyosatining hududlar kesimidagi ijrosi oliy ta‘lim tizimining innovatsion komponentlarini samarali rivojlantirish va ta‘lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta‘minlashga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda. Hususan, bugungi kunda pedagogik ta‘lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishining hayotiy zaruratga aylanishi, unda

OTM da ta'limni zamonaviy va samarali tashkil etish, raqobat, integratsiya, uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishi natijasida manfaatlarning qondirilishiga erishish zaruratini namoyon qilmoqda. Uzluksiz ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi ushbu muhim ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar, hamda ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda, uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zarurati asoslab berilgan.

Bugungi kunda oliy tibbiy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va xalqaro standartlar asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadida ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Tadqiqot mavzusining asosiy g'oyasiga muvofiq, mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish asosida ayniqsa, ta'lim jarayonining uzviy qismi bo'lgan klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi quvonarli holdir.

“Yuqumli kasalliklar ” fanini o'qitishga klasterli yondashuv asosida tashkil etishda bo'lajak mutaxassislariga fan bo'yicha egallangan bilimlarni amalda tizimli izchil va yaxlit mustahkamlashga imkon yaratiladi. Masalan:



1-rasm. Kasallikni davolash jarayoni

Adabiyotlar tahlili asosida *klaster* tushunchasiga turli sohalardagi berilgan ta'rif va tasniflar o'rganildi.

Klaster – o'zaro bog'liq korxonalarni birlashtirishning bir shakli bo'lib, bu hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Tashkillashtirish shakli jihatidan, klaster – vertikal ravishda integratsiyalangan tuzilma.

“Klasterlarning shakllanishida davlatning roli muhim o‘rin tutadi. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo‘yicha ma‘lum tajriba to‘plangan.

Evropa mamlakatlari va AQSH da bu strategiya keng qo‘llanilmoqda. Klasterlar Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, AQSH, Daniya, Fransiya, Italiya, Finlyandiya, Hindistonda yaxshi rivojlangan. Daniya, Finlyandiya, Shvetsiya sanoatini klasterlar to‘la egallagan.

Tadqiqot mavzusining asosiy g‘oyasiga muvofiq, mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish asosida *Klaster* – hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog‘langan tovar va xom ashyo etkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrilashgan majmua. Bugungi kunda *Pedagogik ta‘lim klasteriga* – muayyan jug‘rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlar, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm” sifatida ham qaralgan.

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har sohaga oid manbalarga tayanib, aytishimiz mumkinki, “*Klaster*” atamasi (“*CLUSTER*” ingl. - to‘plam, to‘p, guruh, kontsentratsiya, guruhlarga to‘plash, to‘plamlarda o‘shish) axborot texnologiyalari sohasidan kelib chiqqan va ma‘lum xususiyatlarga ega, mustaqil birliklar sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan bir turdagi elementlarning birlashishini anglatadi. Asosan iqtisodiy tarmoqlarga nisbatan qo‘llanuvchi “klaster” terminining ta‘lim sohasiga kirib kelishi ushbu tushunchaning turli mintaqalarda tadqiqini, uning mazmun-mohiyatini o‘rganishni taqozo etadi. Chunonchi, “*Tibbiyot klasteri* – asosan zanjir ichidagi gorizontall bog‘lanishlarga asoslangan fan-texnologiya-biznesning innovatsion zanjirida ta‘lim berish, bir-biriga ta‘lim berish va o‘z-o‘zini tarbiyalash (mustaqil ta‘lim olish) vositalari tizimidir”, “*Ta‘lim klasteri* – uzluksiz ta‘lim muassasasidan tashqari ishlab chiqarishgacha bo‘lgan yagona tizimi”, deya qayd etiladi. Jumladan *Klaster yondashuvi bu*: alohida soha (ta‘lim, tibbiyot va b.) bo‘lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo‘lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi;

Ta‘limga nisbatan tatbiq qilinayotgan *klaster yondashuviga mualliflik* asosidagi ilmiy farazlarni ham taqdim etish maqsadga muvofiq ta‘lim sohasida uning rivojlanish nazariyasi va texnologiyasini tartibga solish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat turlarini joriy etish, uzviylik, uzluksizlik va izchillik asosida ta‘lim sohasi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan tuzilma tuzish; ta‘lim turlarining innovatsion-integratsion hamkorlik tamoyillari asosidagi hamda maqsad umumiyliigi va manfaat xususiyligidan kelib chiqqan holda belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta‘minlashdir. *Klaster metodi* - fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo‘lib, u talabalarni biror bir mavzuni

chuqur o'rganishlariga yordam berib talabalarni mavzuga ta'luqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravshan ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talaba-talabalarning fikrlash qobiliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda talabalarning shu mavzu bo'yicha ta'savvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Zero, muayyan tushuncha turli makon va zamonda turlicha talqin etilishi tabiiy jarayonligigi aniqlandi.

Tadqiqot ishida ta'limga nisbatan tatbiq qilinayotgan klaster yondashuviga ***mualliflik asosidagi ilmiy farazlarni*** ham taqdim etish maqsadga muvofiq:

-ta'lim sohasida uning rivojlanish nazariyasi va texnologiyasini tartibga solish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat turlarini joriy etish, uzviylik, uzluksizlik va izchillik asosida ta'lim sohasi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan tuzilma tuzish;

- ta'lim turlarining innovatsion-integratsion hamkorlik tamoyillari asosidagi, hamda maqsad umumiyliigi va manfaat xususiyligidan kelib chiqqan holda belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta'minlashga qaratilgan pedagogik-texnologik faoliyat uyg'unligini ta'minlash va hokazo.

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limga nisbatan tatbiq qilinayotgan klaster yondashuvi bu alohida bir sohada samarali hamkorlikka yo'naltirilgan tuzilma tuzish, uning rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat bo'lib, undagi uzviylik, uzluksizlik va izchillik soha faoliyati samaradorligini intensiv oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi; ta'lim sohasidagi klaster yondashuvi belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta'minlashning qulay tuzilmasini tizimga tatbiq etishni nazarda tutadi .

Tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitish metodikasi asosida shakllantirishning eng maqbul tamoyillari quyidagilar belgilandi: klaster metodi - fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biror bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravshan ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatdi. Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarning fikrlash qobiliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkinligi o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish, hamda talabalarning shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini tanlagan kasbiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish talabada o'quv motivatsiyasini oshirish; o'qituvchiga talabalarning kasbiy faoliyatini klasterli yondashuv asosida fanini o'rganishni amalga oshirishga imkon beruvchi o'quv-tarbiya ishlarining kasbiy yo'nalganligini ta'minlash; talabalarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish vazifasini birgalikda amalga oshirish va ishonchli muloqotni, o'zaro foydali hamkorlikni nazarda tutuvchi ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash; klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini resurs va metodik ta'minlashga undaydi:



2-rasm. Ta'lim klasterida talabalarning tibbiy ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlari

Yuqumli kasalliklar moduli dasturi malaka talablari asosida tuzilgan va o'quv rejaning klinik oldi moduli blokiga ta'luqli bo'lib, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan barcha tibbiy fanlarni o'qitishda bog'lovchi bo'g'im sifatida talabalarning ilmiy tafakkuri, keng dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish, tibbiy kasbiy etika tamoyillari asosida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Shu asosda "Yuqumli kasalliklar" fanini klasterli yondashuv asosida o'qitish metodikasi ko'rish mumkin. Mavzularni klasterlarga ajratish:

- **Klaster 1:** Yuqumli kasalliklarning umumiy turlari va etiologiyasi.
 - Virusli, bakterial, parazitlar va zamburug'li kasalliklarning umumiy ko'rinishlari.
 - Kasalliklarning patogenezi va etiologiyasi.
- **Klaster 2:** Yuqumli kasalliklarning epidemiologiyasi va profilaktikasi.
 - Yuqumli kasalliklarning tarqalish mexanizmlari.
 - Vaksinatсия va immunoprofilaktika usullari.
- **Klaster 3:** Kasalliklarning klinik ko'rinishlari va diagnostikasi.
 - Yuqumli kasalliklarning asosiy simptomatologiyasi.
 - Diagnostika usullari va laborator tadqiqotlar.
- **Klaster 4:** Davolash va reabilitatsiya.

- Yuqumli kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan asosiy dori vositalari va ularning qo'llanishi.- Postinfeksion rehabilitatsiya va profilaktik chora-tadbirlar.

Dissertatsiyaning "**Tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitishning metodik ta'minoti**" deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini klasterlar vositasida innovatsion rivojlantirish imkoniyatlari bayon etilgan bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining amaliy-kasbiy tayyorgarligini innovatsion rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar, bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining amaliy-kasbiy tayyorgarligini klasterlari vositasida innovatsion rivojlantirish jarayonining mantiqiy-tuzilmaviy modeli imkoniyatlari bayon etilgan.

Ta'limning yangi paradigmasi talablaridan kelib chiqqan holda, ta'lim sifatini yangicha nuqtai nazardan tushunish, talqin qilish bo'lajak tibbiyot xodimlarni klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitishning metodik takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Buning uchun esa, eng avvalo, pedagogik faoliyat mazmunini o'zgartirish, ta'lim jarayoniga ta'lim texnologiyalarini joriy etish lozim. Ulardan biri tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitishdir.

Respublikamiz Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909 sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarda ham mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mohiyatan 3 ta gigant tizim (ta'lim, fan va ishlab chiqarish) o'rtasidagi uzviylik mexanizmini takomillashtirish ustuvor masalalardan ekanligini ko'rish mumkin.

Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi tibbiyot faoliyatida klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini **VARK modeli** asosida o'qitish, tahlil qilish natijasida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy-amaliy masalalarni hal qilish paytida kasalliklar majmuiga nisbatan ongli munosabatni yuzaga keltirishga yo'naltirilgan tibbiy-psixologik ta'sirlarning uzluksiz jarayonini tushunish talab etiladi. Fan va texnika jadal rivojlanayotgan bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim jarayonini rivojlantirish va "Ilm orqali bilim" texnologiyalariga asoslangan tizimni shakllantirish asosida "Ta'lim-fan-ishlab chiqarish kompleksi"ni tashkil etish va ular o'rtasida integratsion mexanizmni takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega.

VARK- bu ta'lim modelidir. Bu Nil Fleming tomonidan ishlab chiqilgan model bo'lib, u talabalarni dars davomida to'rtta asosiy turga ajratadi:

-*Vizual o'rganuvchilar* (Visual): ko'rgazmali qurollar va rasmlar orqali bilim berish.

-*Eshitish orqali o'rganuvchilar* (Auditory): Mavzuni tinglash va gapirish orqali o'rgatish.

-*O'qish orqali o'rganuvchilar* (Reading): O'qish orqali o'rgatish.

-*Kinestetik o'rganuvchilar* (Kinesthetic): tajriba orqali o'rgatish.

VARK modeli shaxsiy va kasbiy rivojlanishni davom ettirish imkoniyatini beradi, doimiy o'rganishni yanada samarali qiladi.

VARK modeli - talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun aql xarita (spiritual map) orqali fikrlarni tartibga solish va g'oyalar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi. Ushbu vizual tasvir ularga katta rasmni va turli tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rishga yordam beradi. Shuningdek, muhim ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish, toifalarga ajratish yoki asosiy tushunchalarni ta'kidlash uchun ushbu modeldan foydalaniladi.

Shu bilan birgalikda tibbiy fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak mutaxassisda yurtimizda amalga oshirilayotgan tibbiyot sohasidagi islohotlar jarayonidan Bundan tashqari, bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining Yuqumli kasalliklar fani sifatida va epidemik jarayonning asosiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatidagi nazariy bilimlari va uslubiy asoslarini bilgan holda yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini amalga oshirish uchun epidemiologik tashxis qo'yish usullarini o'zlashtirgan, davolash profilaktik muassasalarda va kasallik o'choqlarida, shuningdek ekstremal sharoitlarda kelib chiqishi mumkin bo'lgan epidemiologik oqibatlarda profilaktik uslublarni qo'llash, hamda epidemiyaga qarshi chora tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mukammal egallagan "Yuqumli kasalliklar profilaktikasi" yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassis – DSENM shifokorlarini maqsadga to'rt bosqichda amalga oshirilishini muvofiq ravishda tayyorlashni ta'minlashdan iborat:


-tibbiyot xizmati kasbi davomida duch keladigan turli salbiy ta'sirlarga nisbatan tibbiy immunitetni shakllantirish, ularni ongiga o'z kasblariga mas'uliyat, sadoqat va milliy g'urur tuyg'ularini singdirish, hamda Vatanga muhabbat va «O'zbekiston Respublikasi shifokorining qasamyodi»ga sadoqat ruhida tarbiyalashning ijtimoiy buyurtma sifatida mavjudligi;

-bo'lajak mutaxassislarlar kasbiy tayyorgarligining me'yoriy va mavjud darajalari o'rtasida ziddiyatlarga urg'u beruvchi tibbiy-deontologik, pedagogik tadqiqotlarning ma'lumotlar tahlili;

-bo'lajak mutaxassislarlarda oliy tibbiy ta'lim tizimi va kasbiy-ma'naviy fazilatlarni ajratib ko'rsatishga imkon bergan tadqiqotlar natijalari;

- klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish jarayonlarini o'zaro bog'laydigan kompetensiyalarni yaxlitlikda asoslab beruvchi tizim sifatida obyektiv tasavvur qilish imkoniyati mavjudligi.

Tadqiqot jarayonida o'rganish va tahlil qilish natijasida hamda amaliy tibbiy pedagogik tajribadan kelib chiqib, tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitish modeli ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitish modeli

Bo'lajak tibbiyot mutaxassislari Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish modeli maqsad (ayni jarayonning maqsad va vazifalari), mazmun (ta'lim oluvchilar o'quv-kasbiy faoliyatining nazariy, metodik va amaliy-kasbiy jarayonlari), protsessual, natijaviy-baholash komponentlaridan tashkil topgan.

Maqsad komponentida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarning malaka talabida belgilangan amaliy-kasbiy ta'lim mazmunining zarur va etarli hajmini egallagan, amaliy-kasbiy ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, maxsus kurslarda o'z bilimini chuqurlashtirib, amaliy kasbiy ko'nikmalarni puxta egallagan mutaxassisni tayyorlash vazifasi qo'yilgan.

Me'yoriy-mazmuniy komponentida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning o'quv-me'yoriy asoslari sifatida ta'limiy talablar va mehnat bozori talablarini integratsiyalash asosida malakaviy talablar ini klasterli yondashuv asosida takomillashtirish, amaliy-kasbiy kompetensiyalarini **"On the Job Training"** (ish joyida o'qitish) metodi asosida shakllantirish bosqichlari, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish ko'zda tutiladi.


Protsessual komponentning tashkil etuvchilari sifatida quyidagilar belgilandi: amaliy-kasbiy tayyorgarlik subyektlari, amaliy-kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus ta'lim muhiti (maqsad qo'yish, izlanish, tahlil), pedagogik texnologiyalarni integrativ qo'llash, ta'lim metodlari, ta'lim shakllari (nazariy, amaliy, individual), ta'lim vositalari (klasterli dasturlashtirilgan ko'makchi kompyuter tizimi, qadamma-qadam amaliy-texnologik individual topshiriqlar tizimi).

Natijaviy-baholash komponentida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarda amaliy-kasbiy ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini baholashning bilish, motivatsion, faoliyat mezonlari tanlandi.

"On the Job Training" (ish joyida o'qitish) metodi bo'lajak tibbiyot mutaxassislarda xaqiqiy yoki xaqiqatda yaqinroq bo'lgan ish muhitida amaliy kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan yangi malaka va ko'nikmalarni egallashga amaliy yordam beradigan metoddir.

Tadqiqotimiz doirasidan kelib chiqib, biz tibbiy ta'limda klasterli yondashuv asosida "Yuqumli kasalliklar" fanini o'qitishda yuqumli kasalliklar klasterini ishlab chiqdik 4-rasm.


Ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida hamda amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, bo'lajak tibbiyot mutaxassislarning Klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish modeli ishlab chiqildi (4-rasm).



4-rasm. “Yuqumli kasalliklar” fanini o‘qitish klasteri

Bo‘lajak tibbiyot mutaxassislar klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o‘qitish modeli maqsadi (ayni jarayonning maqsad va vazifalari), mazmun (ta‘lim oluvchilar o‘quv-kasbiy faoliyatining nazariy, metodik va amaliy-kasbiy jarayonlari), protsessual, natijaviy-baholash komponentlaridan tashkil topgan. Maqsad komponentida Bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarning malaka talabida belgilangan amaliy-kasbiy ta‘lim mazmunining zarur va etarli hajmini egallagan, amaliy-kasbiy ta‘lim dasturlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan, maxsus kurslarda o‘z bilimini chuqurlashtirib, amaliy kasbiy ko‘nikmalarni puxta egallagan mutaxassisni tayyorlash vazifasi qo‘yilgan.

